

**MEDICINE
PROBLEMS**

.uz

ISSN 3030-3133

**TIBBIYOT FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL
SCIENCES**



**Nº 8 (3)
2025**



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>
ISSN: 3030-3133

MEDICINEPROBLEMS.UZ
TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI
№ 8 (3)-2025

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2025

BOSH MUHARRIR:

ISANOVA SHOIRA TULQINOVNA- Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

TIBBIYOT FANLARI

Safarov Zafar Fayzullayevich –tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xakimov Murod Shavkatovich –tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Mavlanov Alimbay – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ergashev Nasriddin Shamsiddinovich - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent pediatriya instituti;

Abdullayeva Nargiza Nurmatovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Djurabekova Aziza Taxirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Xaydarova Dildora Kadirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ruziboyev Sanjar Abdusalomovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Sattarov Oybek Toxirovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Niyozov Shuxrat Tashmirovich - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Shomurodova Dilnoza Salimovna - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Tavasharov Bahodir Nazarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Xalmetova Feruza Iskandarovna – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

G'aybiyev Akmaljon Axmadjonovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Qo'ziyev Otabek Juraqulovich – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Ergasheva Munisa Yakubovna - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ollanova Shaxnoza Sirlibayevna – tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Safarov Zafar Fayzullayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xayitov Ilxom Bahodirovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Alimov Suxrob Usmonovich- tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Fozilov Uktam Abdurazzokovich - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Raximov Oybek Umarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya instituti;

Sattarov Inayat Saparbayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Abidov O'tkir O'ktamovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Amonova Zaxro Qaxramon qizi - tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ergashev Suxrob Sayidovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

FARMATSEVTIKA FANLARI

Zulfikariyeva Dilnoza Alisherovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Toshpo‘latova Azizaxon Dilshodovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Xusainova Rayxona Ashrafovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Maksudova Firuza Xurshidovna farmatsevtika
fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent
farmatsevtika instituti;

Ziyamuxamedova Munojot Mirgiasovna -
farmatsevtika fanlari doktori, Toshkent
farmatsevtika instituti, dotsent v.b.;

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna –
farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent farmatsevtika instituti;

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB

MASALALARI elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

<i>Хожамбергенова Пириюза, Кдырниязова Сарбиназ</i> ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ РАСТЕНИЙ СЕМЕЙСТВА ФЕРУЛА	5-13
<i>Юсупходжаева Хуршида, Абдукадирова Лазиза</i> ПРИМЕНЕНИЕ ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПРАКТИКЕ	14-17
<i>Abduraxmanov Karshi, Abduraxmanova Zamira</i> BOLALARDA ALLERGIK KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA XAVF OMILLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORALARI	18-22

BOLALARDA ALLERGIK KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA XAVF OMILLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORALARI

Abduraxmanov Karshi Xolxodjaevich

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent,
Guliston davlat universiteti "Tibbiy fundamental fanlar" kafedrası mudiri.
Email: qarshixonxolxodjayevech@mail.ru
Tel: +998994942961.

Abduraxmanova Zamira Amrullaevna

Guliston davlat universiteti "Klinik fanlar" kafedrası assistenti.

Annotatsiya: Maqolada bolalarda allergik kasalliklar rivojlanishining xavf omillari va ularni oldini olish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bolalarda allergik kasalliklar tuzilmalarini o'rganishda shu narsa aniqlandiki, bronxial astma, atopik dermatit va boshqa allergik kasalliklar yildan-yilga ortib bormoqda. Mazkur maqolada bolalar o'rtasida allergik kasalliklarning ko'payib borayotganligi, allergik kasalliklar shakllanishining yuqori xavf guruhida bo'lgan bolalar orasida muhofaza chora-tadbirlarini o'tkazish zarurati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: allergik kasalliklar, bolalar, xavf omillari, chora-tadbirlar.

RISK FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF ALLERGIC DISEASES IN CHILDREN AND MEASURES TO PREVENT THEM

Abdurakhmanov Karshi Kholkhodjaevich

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor, Gulistan State University
Head of the Department of "Fundamental Medical Sciences".

Abdurakhmanova Zamira Amrullaevna

Assistant Professor of the Department of "Clinical Sciences" of Gulistan State University.

Annotation. The article provides information on the risk factors for the development of allergic diseases in children and their prevention. When studying the structure of allergic diseases in children, it was found that the incidence of bronchial asthma, atopic dermatitis and other allergic diseases is increasing from year to year. This article shows the increasing incidence of allergic diseases among children, the need to carry out protective measures among children who are at high risk of developing allergic diseases.

Keywords: allergic diseases, children, risk factors, measures..

DOI: <https://doi.org/10.47390/Med-pro/v3i8y2025/N03>

Dolzarbliqi. Allergik kasalliklar bugungi kunda dunyo miqyosida tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda.

Butun dunyo bo'yicha allergik kasalliklarga bo'lgan tendensiya tobora o'sib bormoqda va kasallanish ko'rsatkichlari har o'n yilda ikki baravarga ko'paymoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, allergik patologiyalarning eng ko'p va og'ir ko'rinishlari bronxial astma (BA) va allergik rinit (AR) kabi respirator kasalliklar shaklida uchraydi.

Dunyo miqyosida, jumladan ko'pgina industrial rivojlangan mamlakatlar aholisining 20% da allergiyaning asosiy uch shakli – astma, rinit va atopik ekzema uchraydi[2].

So'ngi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha salmoqli natijalar olindi.

Bu borada aholi salomatligini mustahkamlash va allergik patologiyalarni ko'payishini oldini olish, jumladan, bronxial astma va allergik rinitni kamaytirishda muayyan ijobiy natijalarga erishildi.

Ta'kidlash lozimki, jahon miqyosida, allergik kasalliklar, jumladan AR va BAning yil sayin ortishi, kechishining og'ir darajada uchrashi va bemorlar hayot sifatini pasayishi muxim tibbiy va sotsial muammolardan biriga aylandi[3,4].

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, allergik kasalliklar rivojlangan mamlakatlar aholisida 35% gacha, noqulay ekologik mintaqalarda esa 40-50% gacha uchramoqda[2,5].

Hozirgi davrda allergik kasalliklarning mintaqaviy xususiyatga ega ekanligiga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki har bir regionning geografik - iqlimiy xususiyati mavjud, har bir regionning o'ziga xos, ya'ni mintaqaviy etiologik omillari bor.

"Allergiya bo'yicha Yevropa oq kitobi" ga ko'ra bugungi kunda Yevropalik har uchinchi bola allergiyadan, har o'ninchi bola esa astmadan aziyat chekmoqda. O'zbekistonda, xususan, rinit belgilari bilan namoyon bo'luvchi gul changiga allergiya tarqalganligi bo'yicha birinchi o'rinni egallagan va 88% ni, kon'yunktivitlar esa ikkinchi o'rinda turadi va 54,4% ni tashkil qiladi[2,6].

Allergik kasalliklar bolalar hayot sifatining pasayishi, ularning ham jismonan va hamda ruhan moslashuvining buzilishiga hissa qo'shadi. Bolalarda allergik kasalliklarning ko'p tarqalganligi bois allergik patologiyani oldini olish muammosi katta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda allergik kasalliklar rivojlanishining xavf omillari va oldini olish chora-tadbirlarini o'rganish.

Materiallar va usullar. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha bolalarda allergik kasalliklar rivojlanishining xavf omillari va profilaktika chora-tadbirlari o'rganildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Allergik kasalliklar bolalarda eng ko'p tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Adabiyotlarda keltirilgan so'nggi ma'lumotlar yildan-yilga ushbu patologiyaning o'sib borayotgani va pasayish tendensiyasi kuzatilmayotganligini ko'rsatmoqda.

JST ning epidemiologik ma'lumotlari bo'yicha aholining 40% dan ko'pi atopiya belgilariga ega.

Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston aholisi orasida allergik kasalliklarning doimiy ravishda ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda.

Keyingi yillarda allergik rinitdan aziyat chekuvchi bemorlarning mutloq soni 7% ga oshdi. Ayniqsa 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 2,8 baravarga ko'paydi.

Bugungi kunda bolalar va kattalar orasida bronxial astma eng ko'p tarqalgan allergik kasallik bo'lib hisoblanadi [2,7].

Allergik kasalliklar, xususan, atopik dermatitning tarqalganligi va kechishida iqlim omili katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Zarafshon vodiysi o'simliklarga (chinor, terak, majnuntol, makkajo'xori, kungaboqar, tamaki, paxta) boyligi bilan bog'liq. Xususan, atopik dermatitning uchrashi quyidagicha bayon qilingan: qish oylarida – 4,76%, bahorda – 26,19%, yozda – 30,95% va kuzda – 38,09% ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda o'smirlar orasida 2014-2018 yy. larda bronxial astma bilan birlamchi va umumiy kasallanish dinamikasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida birlamchi kasallanish 1,3 baravar, umumiy kasallanish esa 1,1 baravarga ortgan.

O'smirlar orasida BA bilan birlamchi kasallanish 1,2 baravar, umumiy tarqalganligi esa 1,1 baravarga oshgan [8].

Atopik kasalliklar yuzaga kelishining patogenetik mexanizmlarini hisobga olgan holda allergiyaning markerlari sifatida quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: allergik patologiya bo'yicha nasliy anamnezning notinchligi, periferik qonda eozinofiliya, umumiy va spetsifik IgE darajasi, allergenlarning turli guruhlar bilan teri sinamalari (maishiy, epidermal, oziq-ovqat, chang va b.), bronxlarning giperreaktivligi, zardobning sitokinli profili, interferonli status.

Atopiyaga moyil shaxslarda allergik reaksiyalar va kasalliklarning izchil rivojlanishi "allergik marsh", deb belgilanadi.

Bolalarda, qoidaga ko'ra, hayotining dastlabki yillarida oziq - ovqat allergiyasining rivojlanishi, keyinchalik atopik dermatitning yuzaga kelishi, so'ngra allergik rinit, bronxial astma va bola hayot sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keluvchi boshqa allergik kasalliklarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Allergik patologiyalarning rivojlanishida nasliy moyillik muhim o'rin egallaydi.

Allergik kasalliklarni oldini olish maqsadida erta profilaktikaning axborot usuli – oilada va qarindoshlarida allergik anamnezni o'rganishdan iborat.

Ko'pincha anamnez yig'ishda bemorning qarindoshlari turli atopiyadan (bronxial astma, pollinoz, ovqat allergiyasi va b.) aziyat chekishlari aniqlanadi.

Qoidaga ko'ra erta va maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda atopik dermatitning debyuti uchraydi. Bolalarda kasallikning kechishi umumiy va maxsus IgE ning ko'payishi bilan kechadi.

Bemorlarda allergik kasalliklarga nasliy moyillik mavjudligida homiladorlikning so'nggi trimestrida yuqori allergik ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlarni (shokolad, yong'oq, sitrus mevalari, muloqot allergenlar) istisno etish, dori moddalarini qabul qilishni yuqori darajada kamaytirish, zararli odatlardan voz kechish, organizmni chiniqtirish, mavsumiy respirator kasalliklarni oldini olish tavsiya etiladi.

Ovqatlanishning buzilishi, atmosfera havosining ifloslanishi, iqlimning o'zgarishi allergik kasalliklar bilan kasallanishning ortishiga sabab bo'ladi.

Nafas tizimi kasalliklarini oldini olishning samarali usulidan biri - bu, birinchi navbatda, tamaki tutuni kabi xavf omilining zararli ta'sir ko'rsatishi haqida aholining tibbiy bilimlarini oshirishdir.

Allergik reaksiyalar va kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi – bolalar va o'smirlarda allergik kasalliklar bilan kasallanishni kamaytirishning muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Uni allergik patologiyaning yuzaga kelishi bo'yicha xavf guruhida bo'lgan bolalar orasida amalga oshiriladi.

Biroq profilaktika chora-tadbirlarini oilalarda bola hali dunyoga kelmasidan – homiladorlikni rejalashtirish bosqichida boshlash zarur.

Atrof-muhitning noxush sharoitlari, yuqumli -virusli kasalliklar, passiv chekish va boshqa ko'p omillar, shubhasiz, atopik kasalliklar bilan kasallanishning o'sishiga imkon yaratadi.

"Allergiklar" oilasida dunyoga kelgan bolalar erta yoshdan bronxial astma kabi boshqa atopik kasalliklarning yuzaga kelishi xavfi ostida bo'ladilar. Shu bois atopiya rivojlanishining oldini olish maqsadida allergiya yuzaga kelishi bo'yicha yuqori xavf guruhida bo'lgan homilador ayollar va bolalarning dispanser kuzatuvining dasturi zarur.

Erta tashxislash va o'z vaqtida mos davolash-profilaktika chora-tadbirlar majmuasining olib borilishi bolalarda allergiya rivojlanishining xavfini pasaytirishi, allergik kasalliklarning og'ir shaklini kamaytirishi, shuningdek davolanishga bo'lgan iqtisodiy sarf-xarajatlarni qisqartirishi mumkin.

Homilaning ona qornida sensibilizatsiyasini oldini olish, homiladorlik vaqtida onada respirator infeksiyalarning profilaktikasi, homiladorlikda dori vositalarini qabul qilishni cheklash, tashqi muhitni sog'lomlashtirish, passiv chekishni bartaraf etish, ko'krak suti bilan boqishni targ'ib qilish, jismonan sog'lomlashtirish va chiniqtirish va boshqalar bolalarda atopiya fenotipi shakllanishining oldini olish chora-tadbirlari bo'lib hisoblanadi.

Ovqat allergiyasi rivojlanishi bo'yicha dastlabki sensibilizatsiya bo'lib, bolalarda barcha allergik kasalliklarning shakllanishi va keyinchalik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolada ovqat allergiyasining rivojlanishiga ko'pincha onaning bolani ko'krak bilan emizish davrida yuqori allergenli va sutli mahsulotlarni haddan tashqari iste'mol qilish olib keladi.

Bola hayotining dastlabki yillarida ko'krak suti bilan uzoq vaqt emizib boqish allergik patologiyaning rivojlanishini oldini oladi.

Erta yoshdagi bolalarda allergiya tizimli jarayon bo'lib, profilaktikaga kompleks yondoshuvni talab etadi.

Erta yoshdagi bolalarda ovqat allergiyasining og'irlik darajasi va yuqori maromda uchrashi oshqozon-ichak tizimining fiziologik yetilmaganligi, yot oqsil uchun shilliq qavatning yuqori o'tkazuvchanligi va neonatal immun javobning o'ziga xosligi bilan chaqirilgan.

Hayotining birinchi yillarida bolalarni adekvat ovqatlantirish butun dunyoda amaliy sog'liqni saqlashning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ko'krak suti bilan emizib boqish, shartsiz, optimal bo'lib hisoblanadi. Ko'krak suti bilan emizib boqilayotgan bolada ovqat allergiyasining birinchi belgilari paydo bo'lganida ona bilan, ovqat ratsionidan yuqori allergik mahsulotlarni cheklashga yo'naltirilgan, parhez tadbirlarini muhokama qilish talab etiladi. Bolaning ovqat ratsioniga qo'shimcha ovqatni kiritish ko'pincha allergiya rivojlanishini qo'zg'atadi.

Shunday qilib, allergik kasalliklar uchrashining ortishi atrof-muhit omillari va nasliy moyillikning kompleks o'zaro ta'siri bilan chaqirilgan. Biroq tashqi xavf omillari ham

allergiyaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda prenatal davrda va erta yoshda ularning ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi.

Allergik kasalliklarning oldini olishda o'z vaqtida davolash muolajalarini boshlash juda muhim, bu atopiya rivojlanishining yuqori xavf guruhida bo'lgan bolalarda allergik kasalliklarning rivojlanishini bartaraf etishi, "allergik marsh" rivojlanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Allergiyaga qarshi farmakoterapiya o'tkazilishinig maqsadi nafaqat kasallikni davolash, balki, xavf guruhiga kiruvchi bolalarda bronxial astma yuzaga kelishining oldini olishni ko'zda tutadi.

Xulosa. Shunday qilib, bolalarda allergik patologiyani oldini olish muammosi dolzarb hisoblanadi.

Allergik kasalliklarning oldini olish uchun organizmni umumiy chiniqtirish, hamda mavsumiy respirator kasalliklardan muhofazalanish tadbirlarini olib borish muhim ahamiyatga ega.

Allergik kasalliklar yoki ular rivojlanishining xavfi bo'lgan bolalarda o'z vaqtida adekvat olib borilgan kasallikning oldini olish va davolash ishlari "allergik marsh" rivojlanishi ehtimolini ahamiyatli tarzda kamaytiradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Абдуллаев Н.Ч., Юлдашев И.Р., Каратаева Н.А. Особенности клинического течения аллергии у детей микроклеточной этиологии //Современные проблемы диагностики, лечения и профилактики аллергических заболеваний. Тезислар тўплами. VII Республика илмий-амалий анжумани материаллари. - Тошкент. 2015. - 15-16 б.
2. Адо В.А., Горячкина Л.А., Маянский Д.Н. Аллергия // Наука. 2014. - С.128-132.
3. Ахмедова М.М. Особенности бронхиальной астмы у детей, проживающих в условиях города Ферганы // Актуальные проблемы заболеваний органов дыхания у детей: Сб. тез. – Ташкент, 2015. С.45-46.
4. Ахроров Х.Х. Триггерные факторы атопического дерматита у детей дошкольного возраста. //Российский журнал кожных и венерических болезней. - 2017.- Т. 20.- № 6. С.347-351.
5. Далиев А.Ф. Андижон вилояти бўйича мактаб ёшидаги болаларда йил бўйи аллергия ринитнинг учрашиши//VI-ая Евразийская Ассамблея оториноларингологов с международным участием. Современные проблемы оториноларингологии. –Самарканд, 2019, 27-28 сентября. 4 б.
6. Нурматова Я.Г. Основные показатели заболеваемости детей бронхиальной астмой в Республике Узбекистан. //Молодой ученый 2020, №7. 322-325б.
7. Нурполатова С. Т., Менлимурадов П. Т., Кунназарова З. У., Сейтназарова А. У., Жайбергенова Ж. Б. Анализ показателей аллергических заболеваний в Республике Каракалпакстан // Бюллетень науки и практики. 2018. Т. 4. №2. 52-56 б.
8. Шавази Н., Рустамов М., Заирова Б., Лим М., Атаева М., Мамаризаев И. (2022). Частота встречаемости и течение атопического дерматита у детей. Журнал гепатогастроэнтерологических исследований, 2(3.2), 48-50 б.

MEDICINEPROBLEMS.UZ-

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB

MASALALARI

№ 8 (3)-2025

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com